O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

Bulg’or qalampiri mahsulotlarining savdoga chiqarish va tijorat sifatini nazorat qilishga oid standart (FFV-28:2020, IDT)

Rasmiy nashr

O‘zbekiston standartlar instituti
Toshkent

STANDARTLAR INSTITUTI #ZFIWFKE2H6 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

So‘zboshi

1 O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan **ISHLAB CHIQILDI.**

2 O‘zbekiston standartlar institutining 2026-yil 21-iyuldagi 26/XSt-26-sonli buyrug‘i bilan **TASDIQLANDI.**

3 Ushbu standart FVV-28:2020 “concerning the marketing and commercial quality control of Sweet Peppers” xalqaro standartiga aynan o‘xshash.

4 DASTLABKI AMALGA KIRITILISHI

Ushbu milliy standart va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarida chop etiladi.

Ushbu standartni O‘zbekiston Respublikasi hududida rasmiy tarqatish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishlidir

STANDARTLAR INSTITUTI #ZFIWFKE2H6 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifati bo‘yicha ishchi guruh

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa iqtisodiy komissiyasi (BMT YIK) Qishloq xo‘jaligi sifati standartlari bo‘yicha ishchi guruhi tomonidan ishlab chiqilgan tijorat sifati standartlari xalqaro savdoni rivojlantirishga ko‘maklashadi, yuqori sifatli mahsulot yetishtirishni rag‘batlantiradi, rentabellikni oshiradi hamda iste’molchilar manfaatlarini himoya qiladi. BMT YIK standartlaridan hukumatlar, ishlab chiqaruvchilar, savdogarlar, import qiluvchilar va eksport qiluvchilar hamda boshqa xalqaro tashkilotlar foydalanadi. Ushbu standartlar qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining keng turini, jumladan, yangi uzilgan meva va sabzavotlar, quruq va quritilgan mahsulotlar, urug‘lik kartoshka, go‘sht, kesilgan gullar, tuxum va tuxum mahsulotlarini qamrab oladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a’zo har qanday mamlakat Ishchi guruh faoliyatida teng ishtirok etishi mumkin. BMT EEKning qishloq xo‘jaligi standartlari bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumotlarni bizning veb-saytimizdan olishingiz mumkin: http://www.unece.org/trade/agr/welcome.html.

Bulg’or qalampirga doir mazkur qayta ko‘rib chiqilgan standart 2020-yilda Ishchi guruh tomonidan ko‘rib chiqilgan va qabul qilingan (sessiyalararo tasdiqlash tartib-taomili) ECE/CTCS/WP.7/2020/6 hujjatiga asoslangan.

Standartlarning umumiy tuzilmasiga muvofiqlashtirilgan. (2017)

Ushbu standartni talqin qilish yoki qo‘llashda tushunmovchiliklar yuzaga kelganda standartning asli yozilgan tillarning biridan foydalanish tavsiya etiladi

STANDARTLAR INSTITUTI #ZFIWFKE2H6 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

BULG’OR QALAMPIRI MAHSULOTLARINING SAVDOGA CHIQARISH VA TIJORAT SIFATINI NAZORAT QILISHGA OID STANDART

СТАНДАРТЫ КАСАЮЩИЙСЯ СБЫТА И КОНТРОЛЯ ТОВАРНОГО КАЧЕСТВА БОЛГАРСКОГО ПЕРЦА

STANDARD FOR CONCERNING THE MARKETING AND COMMERCIAL QUALITY CONTROL OF SWEET PEPPERS

Amalga kiritish sanasi **1.08.2026-yil**

I Mahsulotni belgilash

Mazkur standart iste’molchilarga yangi uzilgan holatda yetkazib beriladigan *Capsicum annuum* L. turiga mansub navlardan[1] (kultivarlardan) yetishtirilgan Bulg’or qalampirlarga tatbiq etiladi, sanoat usulida qayta ishlashga mo‘ljallangan Bulg’or qalampirlar bundan mustasno.

II Sifatga oid qoidalar

Mazkur standartning maqsadi saralash va qadoqlash jarayonlaridan keyin Bulg’or qalampir mahsulotlarining sifatiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

Biroq, standart eksportdan keyingi bosqichlarda qo‘llanilganda, mahsulotlarda standart talablariga nisbatan quyidagi holatlar kuzatilishi mumkin:

yangilik darajasi va turgorining biroz pasayishi;

Oliy navidan tashqari boshqa navlarga ajratilgan mahsulotlar uchun — ularning rivojlanishi va tez buzilishga moyilligi sababli sifatining biroz yomonlashishi.

Mahsulotga egalik qiluvchi/sotuvchi bunday mahsulotlarni ushbu standartga muvofiq bo‘lmagan har qanday boshqa usulda namoyish qilishi, sotuvga taklif etishi, yetkazib berishi yoki bozorda muomalaga kiritishi taqiqlanadi. Egalik qiluvchi/sotuvchi ushbu muvofiqlik qoidalariga rioya qilinishi uchun javobgardir.

A. Minimal talablar

Barcha navlarda, har bir nav uchun belgilangan maxsus talablar va ruxsat etilgan chetlanishlar inobatga olingan holda, Bulg’or qalampir quyidagi talablarga muvofiq bo‘lishi kerak:

- butun
- sog‘lom; iste’mol uchun yaroqsiz holga keltiradigan chirish yoki sifatining yomonlashishi kabi nuqsonlari bo‘lgan mahsulotlar bundan mustasno;
- toza, amalda har qanday ko‘rinib turadigan yot moddalardan xoli;
- tashqi ko‘rinishi yangi uzilgan;
- tarang;
- amalda zararkunandalardan xoli;

_____

[1] Bulg’or qalampirning ayrim navlari biroz achchiq ta’mga ega bo‘lishi mumkin. Biroz achchiq ta’mga ega bo‘lgan Bulg’or qalampirning tijorat navlariga Sivri, Padron va Somborka navlari misol bo‘la oladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #ZFIWFKE2H6 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

• zararkunandalar tomonidan mahsulot etiga yetkazilgan shikastlanishlardan xoli;
• past harorat yoki sovuq urishi natijasida yetkazilgan shikastlanishlardan xoli;
• bandi bilan birga; bunda bandi tekis kesilgan va kosachasi shikastlanmagan bo‘lishi kerak;
• ortiqcha tashqi namlikdan xoli.

Bulg’or qalampirlarning rivojlanish darajasi va holati quyidagilarni ta’minlay oladigan darajada bo‘lishi kerak:
• tashish va ortish-tushirish jarayonlariga bardosh bera olishi;
• belgilangan manzildagi qabul qilish joyiga qoniqarli holatda yetib borishi.

C. Tasniflash

Bulg’or qalampirlar belgilangan uchta navga bo‘linadi

(i) Oliy nav

Ushbu navdagi Bulg’or qalampirlar oliy sifatli bo‘lishi kerak. Ular tegishli nav yoki tijorat turiga xos xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak.

Mahsulotlar nuqsonlardan xoli bo‘lishi kerak, bundan mahsulotning umumiy tashqi ko‘rinishiga, sifatiga, saqlanishchanligiga va o‘ramdagi ko‘rinishiga ta’sir etmaydigan juda oz miqdordagi yuzaki nuqsonlar mustasno.

(i) Birinchi nav

Ushbu navdagi Bulg’or qalampirlar yaxshi sifatli bo‘lishi kerak. Ular tegishli nav yoki tijorat turiga xos xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak.

Biroq, mahsulotning umumiy tashqi ko‘rinishiga, sifatiga, saqlanishchanligiga va o‘ramdagi ko‘rinishiga ta’sir etmagan taqdirda, yengil nuqsonlar bo‘lishiga ruxsat etiladi:
• shaklining biroz buzilishi;
• umumiy yuzasining 1/3 qismidan ko‘p bo‘lmagan maydonni qismida, kuzatiladigan kumushsimon dog‘lanish yoki tripslar ta’sirida yuzaga kelgan shikastlanishlar.
• terisining quyidagi yengil nuqsonlari:
• cho‘ziq shakldagi nuqsonlar uchun umumiy uzunligi 2 sm dan, boshqa shakldagi nuqsonlar uchun esa umumiy maydoni 1 sm² dan oshmaydigan nuqtali dog‘lar, tirnalishlar, quyosh urishi yoki ezilgan joylar; yoki umumiy yuzasining 1/8 qismidan ko‘p bo‘lmagan maydonni qoplagan quruq yuzaki yoriqlar;
• meva bandining biroz shikastlanganligi.

(ii) Ikkinchi nav

Ushbu navga yuqori navlarga qo‘yiladigan talablarga javob bermaydigan, biroq yuqorida ko‘rsatilgan minimal talablarga muvofiq keladigan Bulg’or qalampirlar kiritiladi.

Bulg’or qalampirlar sifat, saqlanishchanlik va tashqi ko‘rinishga doir o‘zlarining asosiy xususiyatlarini saqlab qolishi keraki bilan, ularda quyidagi nuqsonlar bo‘lishiga ruxsat etiladi:

shaklining buzilishi;
• umumiy yuzasining 2/3 qismidan ko‘p bo‘lmagan maydonni qoplagan, tripslar tomonidan yetkazilgan kumushsimon tus olish yoki shikastlanishlar;
• terisining quyidagi nuqsonlari:
• cho‘ziq shakldagi nuqsonlar uchun umumiy uzunligi 4 sm dan, boshqa shakldagi nuqsonlar uchun esa umumiy maydoni 2.5 sm² dan oshmaydigan nuqtali botishlar, tirnalishlar, quyosh urishi, ezilgan joylar va bitgan jarohatlar; yoki

STANDARTLAR INSTITUTI #ZFIWFKE2H6 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

• umumiy yuzasining 1/4 qismidan ko‘p bo‘lmagan maydonni qoplagan quruq yuzaki yoriqlar;

• umumiy maydoni 1 sm² dan oshmaydigan uch qismining yomonlashishi;

• yuzasining 1/3 qismidan oshmaydigan so‘lishi;

atrofidagi eti shikastlanmagan bo‘lishi keraki bilan, meva bandi va kosachasining shikastlanganligi.

III. O‘lchamlarga qo‘yiladigan talablar

O‘lcham eng katta ekvatorial diametri yoki vazni bo‘yicha belgilanadi.

O‘lchamlarning bir xilligini ta’minlash maqsadida, bitta o‘ramdagi mahsulotlar o‘rtasidagi o‘lcham farqi quyidagi ko‘rsatkichlardan oshmasligi kerak:

(a) Diametri bo‘yicha o‘lchamlarga ajratilgan Bulg’or qalampirlar uchun:

• 20 mm.

(b) Vazni bo‘yicha o‘lchamlarga ajratilgan Bulg’or qalampirlar uchun:

• eng og‘ir mahsulotning vazni 180 g yoki undan kam bo‘lganda — 30 g;

• eng yengil mahsulotning vazni 180 g dan ko‘p, biroq 260 g dan kam bo‘lganda — 80 g;

• eng yengil mahsulotning vazni 260 g yoki undan ko‘p bo‘lganda — cheklov qo‘yilmaydi.

Uzunchoq shakldagi Bulg’or qalampirlar uzunligi bo‘yicha yetarli darajada bir xil bo‘lishi kerak. II nav uchun o‘lchamlarning bir xilligi majburiy hisoblanmaydi.

IV. Ruxsat etilgan chetlashishlar

Muomalaning barcha bosqichlarida ko‘rsatilgan nav talablariga javob bermaydigan mahsulotlar uchun har bir turkumda sifat va o‘lcham bo‘yicha ruxsat etilgan chetlanishlikka yo‘l qo‘yiladi.

(i) Oliy nav

Ushbu nav talablariga javob bermaydigan, biroq I nav talablariga muvofiq keladigan Bulg’or qalampirlarning jami miqdori dona yoki vazn bo‘yicha 5 foizgacha bo‘lishiga ruxsat etiladi. Mazkur ruxsat etilgan og‘ish doirasida II nav sifati talablariga javob beradigan mahsulotlarning jami miqdori 0,5 foizdan oshmasligi kerak.

(ii) Birinchi nav

Ushbu nav talablariga javob bermaydigan, biroq II nav talablariga muvofiq keladigan Bulg’or qalampirlarning jami miqdori dona yoki vazn bo‘yicha 10 foizgacha bo‘lishiga ruxsat etiladi. Mazkur ruxsat etilgan og‘ish doirasida na II nav sifati talablariga, na minimal talablarga javob beradigan mahsulotlarning yoki chirish belgilari bo‘lgan mahsulotlarning jami miqdori 1 foizdan oshmasligi kerak.

(iii) Ikkinchi nav

Ushbu nav talablariga ham, minimal talablarga ham javob bermaydigan shirin qalampirlarning jami miqdori dona yoki vazn bo‘yicha 10 foizgacha bo‘lishiga ruxsat etiladi. Mazkur ruxsat etilgan og‘ish doirasida chirish belgilari bo‘lgan mahsulotlarning jami miqdori 2 foizdan oshmasligi kerak.

STANDARTLAR INSTITUTI #ZFIWFKE2H6 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

B. O‘lcham bo‘yicha ruxsat etilgan og‘ishlar

Barcha sifat toifalari uchun (kalibrlash amalga oshirilgan hollarda) umumiy hisobda miqdori yoki vazni bo‘yicha 10 % gacha kalibrlash talablariga javob bermaydigan shirin qalampirlarning uchun mavjud bo‘lishiga ruxsat etiladi.

V. Tovar ko‘rinishiga oid qoidalar

A. Bir xillik

Har bir qadoq tarkibi bir xil bo‘lishi hamda faqat bir xil kelib chiqish joyi, navi yoki tijorat turi, sifati va o‘lchamiga ega bo‘lgan, shuningdek, rivojlanish hamda pishganlik darajasi va rangi sezilarli darajada o‘xshash bo‘lgan Bulg’or qalampirlardan iborat bo‘lishi kerak. Biroq, sifati hamda tegishli har bir nav yoki tijorat turi uchun kelib chiqish joyi bir xil bo‘lishi keraki bilan, bir-biridan yaqqol ajralib turadigan har xil navli yoki tijorat turidagi Bulg’or qalampirlar aralashmasini bitta qadoqqa birgalikda joylashtirishga yo‘l qo‘yiladi. Bunday aralashmalar holatida o‘lchamlarning bir xilligi talab etilmaydi. Qadoq tarkibining ko‘rinib turgan qismi butun qadoq ichidagi mahsulotlar tarkibini aks ettirishi kerak.

B. Qadoqlash

Bulg’or qalampirlar mahsulotning tegishli darajada himoya qilinishini ta’minlaydigan tarzda qadoqlanishi kerak. Qadoq ichida foydalaniladigan materiallar toza hamda mahsulotga har qanday tashqi yoki ichrki shikast yetkazilishining oldini oladigan sifatga ega bo‘lishi kerak. Savdo tavsiflari tushirilgan materiallardan, xususan, qog‘oz yoki shtamplardan foydalanishga, agar matn yoki etiketka belgilari zaharli bo‘lmagan siyoh yoki yelim yordamida bajarilgan bo‘lsa, yo‘l qo‘yiladi. Mahsulotlarga yakka tartibda yopishtiriladigan stikerlar olib tashlanganda o‘zidan yelimning ko‘rinadigan izlarini qoldirmaydigan va po‘stloqning nuqsonlariga olib kelmaydigan bo‘lishi kerak. Alohida mevalarga lazer yordamida tushirilgan ma’lumotlar meva eti yoki po‘stlog‘ining shikastlanishiga olib kelmasligi kerak. Qadoqlar har qanday yot moddalardan xoli bo‘lishi kerak.

VI. Tamg‘alashga oid qoidalar

Har bir qadoq[2] quyidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi kerak: yozuvlar bir tomonda jamlangan, aniq o‘qiladigan, o‘chmaydigan tarzda belgilangan hamda tashqi tomondan ko‘rinadigan bo‘lishi lozim.

---

[2]Ushbu tamg‘alash qoidalari paketlarga (yirik qadoqlarga) joylashtirilgan savdo qadoqlariga nisbatan tatbiq etilmaydi. Biroq ular alohida (yakka tartibda) taqdim etiladigan savdo qadoqlariga (birlamchi qadoqlarga) nisbatan tatbiq etiladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #ZFIWFKE2H6 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

A. Identifikatsiya belgilari

Qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi/eksportchi:

Nomi va yuridik manzili (masalan, ko‘cha/shahar/hudud/pochta indeksi hamda, agar kelib chiqish mamlakatidan farq qilsa, mamlakat nomi) yoki bunday tizimni qo‘llayotgan mamlakat BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi Kod[3] belgilari reyestriga kiritilgan bo‘lsa, milliy vakolatli organ tomonidan rasman tan olingan kod belgisi.

B. Mahsulot tavsifi

• agar tarkibi tashqi tomondan ko‘rinmasa, "Bulg’or qalampir" deb yozilishi;

• bir-biridan yaqqol ajralib turadigan har xil navli yoki tijorat turidagi qovunlar aralashmasi bo‘lgan taqdirda, " Bulg’or qalampirlar aralashmasi" yoki unga tenglashtirilgan nom bilan ko‘rsatilishi. Agar mahsulot tashqi tomondan ko‘rinmasa, navlar va/yoki tijorat turlari hamda qadoqdagi har bir tur miqdori ko‘rsatilishi kerak;

C. Mahsulotning kelib chiqishi

• kelib chiqqan mamlakati[4] hamda ixtiyoriy ravishda yetishtirilgan tumani (hududi) yoki milliy, mintaqaviy yoki mahalliy joy nomi;

• turli mamlakatlardan keltirilgan, bir-biridan yaqqol ajralib turadigan har xil navli va/yoki tijorat turidagi Bulg’or qalampirlar aralashmasi bo‘lgan taqdirda, har bir kelib chiqqan mamlakat nomi tegishli nav yoki tijorat turi nomining yonida ko‘rsatilishi lozim.

D. Tijorat tavsiflari

• nav;
• O‘lcham (agar o‘lchamlarga ajratilgan bo‘lsa) — eng kichik va eng katta diametrlar yoki eng kichik va eng katta vazn ko‘rinishida ifodalangan;
• Dona soni (ixtiyoriy);
• Zarur hollarda — "(Tur yoki nav nomi) biroz achchiq ta’mga ega bo‘lishi mumkin" yoki shunga tenglashtirilgan ma’lumot.

E. Rasmiy nazorat belgisi (ixtiyoriy)

1969-yilda qabul qilingan
So‘nggi marta 2020-yilda qayta ko‘rib chiqilgan
2017-yildagi standart tuzilmasiga muvofiqlashtirilgan

---

[3] Bir qator mamlakatlarning milliy qonunchiligi nomi va manzilini aniq ko‘rsatishni talab qiladi. Biroq, kodli belgidan foydalanilgan taqdirda, "qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi (yoki shunga tenglashtirilgan qisqartmalar)" degan havola ushbu kodli belgi bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rsatilishi kerak, shuningdek, agar kelib chiqish mamlakati bo‘lmasa, kodli belgidan oldin uni tan olgan mamlakatning/hududning ISO 3166 (alfa) standarti bo‘yicha kodi ko‘rsatilishi lozim.

[4] To‘liq yoki keng qo‘llaniladigan nom ko‘rsatilishi kerak. BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi (YEK BMT) ushbu standartni qo‘llash bo‘yicha tushuntirish xarakteridagi illyustratsiyali broshyurani nashr etgan. Ushbu nashrni YEK BMTdan quyidagi manzil orqali olish mumkin: www.unece.org/trade/agr/welcome.htm

STANDARTLAR INSTITUTI #ZFIWFKE2H6 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

BMT EEK (UNECE) mazkur standartning qo‘llanilishi bo‘yicha tushuntirish beruvchi rasmli broshyurani nashr etgan. Ushbu nashrni BMT EEK dan quyidagi manzil orqali olish mumkin: www.unece.org/trade/agr/welcome.html

_____

STANDARTLAR INSTITUTI #ZFIWFKE2H6 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI